

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Rasulova Zohida Sindarovna o'qituvchi

Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

e.mail: zohidarasulova6@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalarni hisobga olgan holda, innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishga zarurat mavjud. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, islohot, barkamol avlod, rivojlanish, metod, yo'llar, g'oya, jamiyat.

Bilimga eltuvchi yagona yo'l bu –faoliyatdir. [B.Shou]

KIRISH. Mustaqil O'zbekistonimizda barkamol avlodni rivojlantirishning har xil yo'llari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalarini hisobga olgan holda, innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishga zarurat mavjud. Bugun yurtimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar o'zlikni anglash imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy, intellektual, aqliy, amaliy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bu esa o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarga insonning o'ziga yangicha munosabat va yondashuvni talab qiladi. Bu bilan birgalikda mamlakatimizning

turli ta'lim tashkilotlarida bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirishning ham turli yo'llari ishlab chiqilmoqda.

Ta'lim kommunikatsiyalari va texnologiyalari assotsiatsiyasi ta'lim texnologiyasini, tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o'rganishni va samaradorlikni oshirishni o'rganish va axloqiy amaliyot“, deb ta'riflagan.[2:9] U ta'lim texnologiyasini o'rganish uchun jarayonlar va resurslarni loyihalash, ishlab chiqish, ulardan foydalanish, boshqarish va baholash nazariyasi va amaliyoti“ sifatida ko'rsatdi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'rganishga ham e'tibor berildi. Davlat ta'lim standartida ham tegishli ta'lim bosqichi yakunida ta'lim oluvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni davlat, jamiyat va mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda belgilash aytiladi[1:1]. Demak shundan kelib chiqadiki, o'quvchilarda ma'lum kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham ta'limda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'rta ta'limning birinchi va ikkinchi bosqichiga sifatli tayyorlash uchun kerakli bilim faqat boshlang'ich ta'limda beriladi.

Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini - o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shuningdek gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishini ta'minlaydi, hamda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi. Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi. Bunday xususiyatlarni rivojlantirish uchun ham innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng yoyish kerak. Ta'lim texnologiyasi ta'lim maqsadiga erishish jarayonida ro'y beradigan jarayonlarda samarali metodlar, usullardan foydalanib jarayonni yuqori darajada boshqarish zarurdir. Masalan: Aqliy hujum metodini oladigan bo'lsak, xorijiy tillarni o'rganishda juda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Chunki

o'quvchilar bilan qanchalik ko'p suhbat bo'lsa, shunchalik tilga e'tibor kuchayadi, nutq rivojlanadi, lug'at boyligi oshadi, o'rganish osonlashadi. Yana "Kundalik daftar" metodi ham juda qulay metodlardan biri. O'quvchilarga o'zbek tilidagi so'zlar yoki rasmlar aks etgan daftar tarqatiladi. Ularga o'qituvchi tomonidan tushuntirib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar uni kundalik daftariga yozadi, xato yozilganda o'qituvchi o'zi tahlil qilib beradi. Har kuni 2-4tadan so'zni kundalik daftarga qayd etib borish va uni tahlil etish kerak. O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda turli innovatsiyalardan foydalanib dars o'tish samarasi yuqoriroq bo'ladi. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u ta'lim oluvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash anchayin murakkab jarayon sanaladi. Bugungi zamonaviy ta'limning asosini tashkil etayotgan rivojlantiruvchi ta'limda shaxs o'qitishning diqqat markazida bo'lib, shunga binoan, ta'lim maqsadi, mazmuni va shakllari o'quvchiga, uning shaxsiga qaratilganligi bilan o'zgacha mazmun kasb etadi. Bu holatlar hammasi yengillik bilan kechmay, o'qituvchidan katta ma'suliyat, iqtidor, pedagogik mahorat va tegishli bilim ham taqozo etadi. Qolaversa o'quvchilarni har bir darsga qiziqтира olish, diqqatini jamlay olish ham muhimdir. Shunday ekan boshlang'ich sinf o'qituvchisi bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarga saboq berishda turli innovatsion metodlarni bilishi va ularni o'z o'rnida tadbiq etishi muhim hodisa sanaladi. Zero buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: **«Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...»**.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.03.2024 yildagi 157-son.
2. Tolipov O', Ro'ziyeva D "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T.: "Innovatsiya-Ziyo" 2019y.